



### “Ikki karra Internet” aksiyasining shartlari

1. “Ikki karra Internet” aksiyasining shartlari (keyingi o‘rinlarda – Aksiya shartlari) ushbu Aksiyaning taqdim etish tartibini belgilaydi.
2. Aksiyaning o‘tkazish davri - 2021 yil 7 dekabr dan 2022 yil 7 yanvargacha.
3. Aksiya doirasida quyidagi Internet-paketlarni faollashtirish mumkin:

T/R	Paket nomi	Kiritilgan trafik, MB	Narxi, so‘m	Amal qilish muddati, (kun)
1	Ikki karra Internet 1 GB	2 048	9 000	30
2	Ikki karra Internet 1,5 GB	3 072	14 000	30
3	Ikki karra Internet 3 GB	6 144	18 000	30

4. Jismoniy shaxslar Internet-paketlarni USSD-so‘rov orqali, UZTELECOM sotuv va xizmat ko‘rsatish ofislarida, Call-markazda “MyUZTELECOM” mobil ilovasi orqali yoki SMS-xabar yordamida faollashtirishi mumkin. Ushbu Internet-paketlarga dilerlik xizmat ko‘rsatish nuqtalari orqali ulanish mumkin emas.
5. Yuridik shaxslar xizmatga ulanishni UZTELECOM sotuv va xizmat ko‘rsatish ofislari va Call-markazga murojaat qilgan holda yoki USSD (\*500#) so‘rov orqali (“Mobil byudjet” xizmati yoqilgan holda) amalga oshirishi mumkin.
6. Aksiya doirasida har qanday Internet-paket faollashtirilganda (1,5 GB dan 3 GB gacha) abonent ushbu Internet-paket faollashtirilgan vaqtdan boshlab, 30 kun muddatga bonus sifatida xuddi shunday hajmdagi megabaytlarni o‘z ichiga olgan trafikka ega bo‘ladi.
7. Amaldagi bonusli paketning muddatini uzaytirish keyingi (1,5 GB dan 3 GB gacha) bir turdagi Aksiya doirasidagi Internet-paket (bir xil hajm va turdagi paket)ni xarid qilish yo‘li orqali amalga oshiriladi.
8. Navbatdagi bir turdagi aksiyali Internet-paket faollashtirilganda, megabaytlar qo‘shiladi. Qo‘shilgan bonusli megabaytlarning amal qilish muddati oxirgi Internet-paket xarid qilingan kundan boshlab, 30 kun muddatli bonusli trafikni tashkil etadi.
9. Har xil turdagi aksiyali paketlar (har xil hajmdagi va turdagi Internet-paketlar) faollashtirilganda megabaytlar qo‘shilmaydi va Internet-paketlarning amal qilish muddati har bir paket uchun alohida belgilanadi. Trafik sarflanishi tartibi faollashtirish tartibiga muvofiq amalga oshiriladi.
10. Internet-paketning amal qilish muddati tugaganidan so‘ng, keyingi bir turdagi Internet-paket faollashtirilmaganda, megabaytlar qoldig‘i saqlanmaydi.
11. Yoqilgan trafik tugaganda yoki Internet-paketning amal qilish muddati tugaganda, trafik amaldagi Internet-paketga muvofiq tariflanadi.

12. Raqam yoki tarif rejasi o'zgartirilganda Aksiya shartlari o'zgar olmaydi.

13. Internet-trafik sarflanishining ustuvorligi:

1) Kunlik Internet-paketlar (non-stop, kunlik).

2) Bonusli trafik:

- "Tug'ilgan kun tabrigi";

- "MyUZTELECOM" ilovasi bonuslari;

- "Apelsin" ilovasi bonuslari.

3) Tarif rejasi doirasidagi Internet-trafik.

4) "Ikki karra Internet" aksiyasi doirasidagi Internet-trafik.

5) Qolgan xarid qilingan Internet-paketlar - ularni faollashtirish tartibida.

14. Aksiya o'tkazilishi va unda ishtirok etish shartlari haqida tegishli ma'lumotlar Kompaniyaning [www.uztelecom.uz](http://www.uztelecom.uz) rasmiy veb-saytida joylashtiriladi hamda boshqa aloqa vositalari orqali e'lon qilinadi.

15. "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi Aksiya shartlariga o'zgartirish kiritish huquqiga ega va ushbu haqda tegishli ma'lumotlar Kompaniyaning [www.uztelecom.uz](http://www.uztelecom.uz) rasmiy veb-saytida joylashtiriladi hamda boshqa aloqa vositalari orqali ma'lum qilinadi. Ishtirokchilar Aksiya shartlariga tegishli o'zgartirishlar kiritilganligini Kompaniyaning mazkur rasmiy veb-sayti orqali mustaqil ravishda tekshirib turishlari mumkin.

16. Holatni tekshirish:

-SMS-habar orqali 9999 qisqa raqamiga 1002 raqamini yuborish yoki 1002#, \*107# USSD-so'rovni terish orqali amalga oshiriladi.

17. Aksiya quyidagi tarif rejalariga ulangan abonentlar uchun amal qiladi:

<b>Jismoniy shaxslar uchun:</b>	"Aloqachi", "Yoshlar", "Oddiy 10", "TA'LIM", "MAKTAB", "Street", "OnLine", "Flash", "Ishbilarmon", "Street Upgrade", "Flash Upgrade", "C1", "C2", "C3", "C4", "E'ZOZ", "Salom", "Salom Plus", "Step", "Traffic", "Uzmobile 1200", "Uzmobile 4000", "Constructor", "Uzmobile VIP", "Komfort", "Milliy 10", "Milliy 15", "Milliy 40", "Milliy 50", "Milliy 70", "Milliy 100".
<b>Yuridik shaxslar uchun:</b>	"Xizmat 1/2/3", "Business Voice/25/35/50/70", "Asosiy Budjet", "Oddiy 10", "Budjet 400", "Ta'lim for corporate", "Budjet 1500", "Ishbilarmon", "C1", "C2", "C3", "C4", "Salom", "Salom Plus", "Step", "Traffic", "Uzmobile 1200", "Uzmobile 4000", "Business 500", "Business 2500", "Constructor", "Uzmobile VIP".

18. Paketlarni faollashtirish:

Nomi	USSD orqali	9999 raqamiga SMS
<b>Ikki karra Internet 1 GB</b>	*500*1*1*1#	1024
<b>Ikki karra Internet 1,5 GB</b>	*500*1*2*1#	1536
<b>Ikki karra Internet 3 GB</b>	*500*1*3*1#	3072

19. Internet-paketlar faollashtirilganda abonentlarga SMS-xabar yuboriladi:

Ikki karra Internet 1 GB	Siz 'Ikki karra Internet' aksiyasi ishtirokchisi bo'ldingiz va Sizga 30 kunga +1024 MB bonus berildi. Tekshirish uchun *100*2# raqamiga USSD-so'rov yuboring.
Ikki karra Internet 1,5 GB	Siz 'Ikki karra Internet' aksiyasi ishtirokchisi bo'ldingiz va Sizga 30 kunga +1536 MB bonus berildi. Tekshirish uchun *100*2# raqamiga USSD-so'rov yuboring.
Ikki karra Internet 3 GB	Siz 'Ikki karra Internet' aksiyasi ishtirokchisi bo'ldingiz va Sizga 30 kunga +3072 MB bonus berildi. Tekshirish uchun *100*2# raqamiga USSD-so'rov yuboring.